



IMPORTANCE OF MARRIAGE AND FAMILY IN THE CONDITIONS OF UZBEKISTAN'S INDEPENDENCE

Qurbonova Gulasal Abdurasulovna¹

¹ 2nd year master's degree at ASU specializing in teaching methods of Social and humanitarian sciences (legal education)

E-mail: gulasal.qurbonova@bk.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4968371>

ARTICLE INFO

Received: 05th June 2021

Accepted: 10th June 2021

Online: 15th June 2021

KEY WORDS

Family, independence, constitution, marriage, men, women, child rearing, national ipbringing.

ABSTRACT

This article discusses on marriage and the family after the independence of the Republic of Uzbekistan.

O'ZBEKISTON MUSTAQILLIGI SHAROITIDA NIKOH VA OILAGA BO'LGAN E'TIBOR

Qurbonova Gulasal Abdurasulovna¹

¹ ADU ijtimoiy gumanitarfanlarni o'qitish metodikasi (ma'naviyat asoslari) mutahassisligi 2-bosqich magistrantlari,

E-mail: gulasal.qurbonova@bk.ru

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 05-iyun 2021

Ma'qullandi: 10-iyun 2021

Chop etildi: 15-iyun 2021

KALIT SO'ZLAR

Oila, mustaqillik, Konstitutsiya, nikoh, erkaklar, ayollar, farzand tarbiyasi, milliy tarbiya.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekiton mustaqillikka erishgach nikoh va oilaga bo'lgan e'tibor haqida so'z boradi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, jamiyatning rivojlanishida turli sohalarda ijtimoiy-siyosiy islohatlar amalga oshirildi. Jumladan, oilaga bo'lgan e'tibor ham o'zgardi. Oila masalasi mamlakatimiz sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov "Oila ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ijtimoiy siyosatimizning tamal toshidir. Biz davlatimizning ijtimoiy negizlarini, uning barqarorligini mustahkamlashda, jismonan baquvvat, ma'naviy boy avlodni



tabiyalashda oilaning rolini oshirishga juda katta ahamiyat bermoqdamiz"¹deb bejiz aytmagan.

CHunki oila – davlat va jamiyat tayanchi. Davlat siyosatining har bir yo'nalishi oila bilan bog'liq, ya'ni oilada kelajak avlod tug'iladi, shakllanadi va kamol topadi. SHu jihatdan barcha oilani qadrlaydi, uning sog'lomligini, tinchligini, farovonligini ta'minlashga harakat qiladi. Barcha millat va xalqlar ichida oilani muqaddas, buyuk va e'zozli qadriyat deb bilguvchi davlat – bu O'zbekistondir.

Chunki o'zbek oilasining o'ziga xos odatlari bor, jumladan, bolajonligi, bolaga nom berishi, bolaga alla aytishi, bolani mehr-muhabbat bilan tarbiyalashi va hayoti davomidagi bola tug'ilishi bilan bog'liq ravishda o'tkaziladigan marosimlari va boshqalar hisoblanadi. Er-xotin o'rtasidagi o'zaro hurmat, izzat, oilada otaning o'ziga xos o'rni bo'lishi va unga oiladagilarning bo'ysunishi yanada diqqatga sazovordir.

Zero, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov "Kelajak avlod haqida qayg'urish, sog'lom, barkamol naslni tarbiyalab yetishtirishga intilish bizning milliy xususiyatimizdir. Bu muqaddas zaminda yashayotgan har qaysi inson o'z farzandlarining baxtu-saodati, fazlu-kamolini ko'rish uchun butun hayoti davomida kurashadi, mehnat qiladi, o'zini ayamaydi"², deb bejiz aytmagan.

Chunki oila har bir fuqaroga mas'uliyat hissini yuklaydi. Ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarni

vujudga keltiradi va shakllantiradi. Odatda, oilaning asosini nikoh tashkil etadi. Mana shu nikoh orqali erxotinlik huquq va majburiyatlari vujudga keladi.

Jumladan, bu haqda amaldagi Oila kodeksining 18-moddasida "Nikoh FHDYo organlarida ro'yxatga olingan paytdan boshlab nikohni tuzganlar er-xotin deb hisoblanadilar va shu paytdan e'tiboran ular o'rtasida er-xotinlik huquq va majburiyatlari vujudga keladi"³ – deyilgan

Erkaklar va ayollarning teng huquqliligi to'g'risidagi Konstitusiyaviy tamoyil oilaviy munosabatlarda ham belgilangan bo'lib, unda er va xotin teng ravishda huquq va majburiyatlarga egaligi ko'rsatilgan.

Davlat ulkan bir oila bo'lsa, uning rivojlanishida, obro'-e'tiborga ega bo'lishida har bir oilaning o'rni juda katta. Ana shu sababdan oila davlat himoyasidadir. 1948 yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasining 16-moddasi 3-qismida "Oila jamiyatning tabiiy va asosiy hujayrasidir va u jamiyat, davlat tomonidan muhofaza etilish huquqiga egadir"⁴, -deb belgilanadi.

Jamiyatimiz oilalardan iborat ekan, uning turmush tarzini, farovonligini, tinch-totuv yashashini ta'minlash lozim. CHunki oila tinch bo'lsa, jamiyat ham tinch bo'ladi. Shu nuqtqi nazardan davlatimizdagi oila va uning har bir a'zosini huquqlarini himoya qiluvchi, oilaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi,

¹I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.

–T.:O'zbekiston. 1997. -224 b.

² I.Karimov. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: O'zbekiston.1997.

³ O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. –T.: Adolat. 1998.

⁴ Inson huquqlari to'g'risida xalqaro bill kitobida. –T.: Adolat. 1992. -14 bet.



mustahkamlovchi, huquqiy normalar yig'indisi sifatida quyidagi manbalarini ko'rsatish mumkin:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi;

2. Konstitusiyaviy qonunlar (masalan, O'zbekiston Respublikasining "Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi va "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi qonunlar va boshqalar. Chunki ushbu qonunlarda Konstitusiyaviy xarakterdagi normalar mavjud.

3. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi;

4. Mazmunida oilaviy-huquqiy normalar mavjud bo'lgan kodekslar va qonunlar (masalan, Fuqarolik kodeksi, Uy-joy kodeksi va h.k.lar);

5. Prezident Farmonlari (masalan, "Ijtimoiy himoya yili" Davlat dasturi to'g'risida);

6. Vazirlar Mahkamasining qarorlari (masalan, Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari);

7. Odat huquqi normalari;

8. Xalqaro shartnomalar va Konvensiyalar⁵.

1998 yil «Oila yili» deb e'lon qilinishi sababi bilan Vazirlar Maxkamasi oilaning davlat tomonidan qo'llab quvvatlanishi, oilalarning huquqi,

ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy axloqiy faoliyatlarini izchil ta'minlash farovonlikni yaxshilashga qaratilgan davlat dasturini qabul qildi. Dasturda quyidagi vazifalar alohida ta'kidlab o'tilgan.

Oilaviy munosabatlarning xuquqiy negizini takomillashtirish, onalik va bolalikni himoya qilish.

Oilaning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini ta'minlash uchun sharoit yaratish.

Oilaning ma'naviy-axloqiy negizlari, va madaniy manfaatlarini takomillashuviga sharoit yaratish, sog'lom, barkamol yosh avlodni tarbiyalashdagi mavqei yanada oshirish, hamda bu borada oila va jamoatchilik xamkorligini har tomonlama kengaytirish.

Oila muammolarini ilmiy va ijtimoiy tadqiq etishni chuqurlashtirish, oila, xotin-qizlar va bolalarning iqtisodiy-ijtimoiy ahvolini ko'rsatuvchi statistik axborot to'plash tizimini yo'lga qo'yish va takomillashtirish⁶. Yuqorida ko'rsatilib o'tilgan misollarning barchasi O'zbekiston Respublikasida oila va uning mustahkamligi yo'lida qilinayotgan ulkan ishlarning dalilidir.

Abdulla Avloniy: «Kishini kecha va kunduz ishlataladurgan narsa Vatan va bola-chaqalarining mehru-muhabbati emasmi? Ma'lumki, Vatansiz oila, oilasiz vatan ham bo'lmaydi, jamiyatdagi bu ikki narsa bir-biri bilan uzviy bog'lanadi va biri ikkinchisini to'ldiradi» - deya yozgan edi. Shu ma'noda oila Vatan ichra Vatan,

⁵ N.M.Akayeva. Oila huquqi. – T.:Toshkent.2016.6-7 betlar.

⁶ Valiyeva B. Cherkashina I. O'zbekistonda xotin-qizlar, qonunva jamiyatmuammolari. T. «Adolat» 1999 yil 47-b.



mehnat tufayli odob va ozod go'sha bo'lib, Vatan bag'rida, Vatan himoyasida barqarorlik kasb etadi. Binobarin, oila shu Vatanda amal qilinadigan nizomlarga itoat qilib, turmushini yo'lga qo'yadi. Bu esa, o'z navbatida, oilaning qo'shnihilik, mahalladoshlik munosabatlarida, shuningdek, mahalla-ko'y amal qilayotgan to'yu-ma'arakalarga qatnashish, ularga xos rasm-rusumlar va urfodatlariga rioya etishni zaruriyatga aylantiradi. Bu jarayon chuqurlashgani sayin oila ham mustahkamlana boradi, pirovard-oqibatda millat yoki xalqqa daxldor oila iftixori yuzaga keladi va shakllanadi. O'zbeklarda

ko'rinadigan oilaparvarlikning tom ma'nodagi asoslari ana shularda aks etgan. O'zbekiston Respublikasi mustaqil bo'lgandan buyon shu kungacha jamiyat diqqat-e'tiborini o'zbek milliy oilasini mustahkamlashga qaratilganligi, eng muhimi, shu munosabat bilan oilaga aloqador qator chora-tadbirlar amalga oshirilganligi ham aslida xuddi shu o'zbekona oilaparvarlik asoslarini har tarafлама rivojlantirish negizida sog'lom va baquvvat demokratik jamiyatni barqaror etish maqsadini ko'zlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. -T.: Adolat. 1998.
2. Inson huquqlari to'g'risida xalqaro bill kitobida. -T.: Adolat. 1992. -14 bet.
3. I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-T.:O'zbekiston. 1997. -224 b.
4. I.Karimov. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: O'zbekiston.1997.
5. N.M.Akayeva. Oila huquqi. - T.:Toshkent.2016.6-7 betlar.
6. Valiyeva B. Cherkashina I. O'zbekistonda xotin-qizlar,qonunva jamiyatmuammolari. T. «Adolat» 1999 yil 47-b.